

125. Unumdorlik

Yondosh mavzu:
hunarmandlar.

Formula, unumdorlik,
miqdor, ish hajmi.



1. Usta jami nechta buyum yasaganini aniqlang.



1 soatda 3 tadan ko'za yasab,
7 soat ishladi.



1 kunda 12 tadan choynak yasab,
6 kun ishladi.

2. Usta bir kunda jami nechta buyum yasaganini aniqlang.



25 kunda 300 ta
kosa yasadi.



18 kunda 216 ta
lagan yasadi.

Vaqt birligi ichida bajarilgan ish **mehnat unumdorligi** deb ataladi.

Unumdorlik tarkibli birliklar: dona/h, kg/min, m/s bilan belgilanadi.

Qadoqlash mashinasi bir soatda 430 quti shokoladni qadoqlaydi.

Mashinaning mehnat unumdorligi 430 dona/h.

Dastgoh minutiga 20 metr gazlama ishlab chiqaradi.

Dastgohning mehnat unumdorligi 20 m/min.

Operator kuniga 10 sahifa matn teradi.

Operatorning mehnat unumdorligi 10 dona/kun.



3. Har bir holatda unumdorlikni toping.



Asfalt tekislovchi mashina bir soatda 60 m yo'lni tekislaydi.



Jasur 1 minutda 60 ta belgi yozadi.



Usta 1 kunda 4 ta idishga gul chizadi.



4. Gul bosuvchi avtomat 5 soatda 735 ta likopchaga gul bosadi. Usta esa qo'lda 9 soatda 3 ta likopchaga gul chizadi. Avtomatning unumdorligi ustaning unumdorligidan necha marta katta? Avtomat 1 soatda ustaga nisbatan nechta ko'p likopchaga gul bosadi?



5. Usta bir oyda 15 ta ko'zaga naqsh chiza oladi. Agar u shunday unumdorlik bilan ishlasa, bir yilda nechta ko'zaga naqsh chizadi?



6. Kompleks masalalarni yeching. Har bir band uchun ifoda tuzing.

a) Idishlarni tashish uchun ustaga bo'yi 35 cm, eni 28 cm, balandligi esa 14 cm bo'lgan qutilar kerak. Bunday qutining hajmini toping.

b) Bir list kartondan 12 ta quti yasash mumkin.

48 ta quti yasash uchun necha list karton kerak bo'ladi?

d) Bir qutiga bitta choynak va 6 ta piyoladan iborat to'plam joylanadi. 48 ta to'plam uchun qancha piyola kerak bo'ladi?

e) Ustaning omborida 152 ta piyola bor. Bu to'plamlar uchun yana nechta piyola yasash kerak?



125. Unumdorlik



7. a) Ushbu likopchani qanday geometrik shakllardan tashkil topgan? Bu shakllarning qaysilari muntazam?
b) Bu likopchani kvadrat shaklidagi qutiga joylash kerak. Agar likopchani radiusi 15 cm bo'lsa, qutining o'lchamlarini toping.



8. Qulay usulda hisoblang.

$$2 \cdot (400 + 70 + 2)$$

$$2 \cdot 826$$

$$8 \cdot 937$$

$$6 \cdot (700 + 90 + 7)$$

$$5 \cdot 318$$

$$7 \cdot 298$$



9. $172 \cdot 4 = 688$ ekanini bilgan holda, quyidagilarni toping:

$$172 \cdot 5$$

$$172 \cdot 6$$

$$172 \cdot 7$$

$$172 \cdot 8$$

$$173 \cdot 4$$

$$174 \cdot 4$$

$$175 \cdot 4$$

$$176 \cdot 4$$



10. Ikki hunarmand bir hafta ichida bir nechta lagan yasadi. Ular birgalikda birinchi usta yasaganidan 25 ta ko'p, ikkinchi usta yasaganidan esa 16 ta ko'p lagan yasashdi. Ularning har biri nechta lagan yasagan? Ular birgalikda nechta lagan yasashgan?



11. Ifodalarni hisoblang va tegishli harflar yordamida so'z hosil qiling. Naqshlarni yasash uchun naqqosh qanday asbobdan foydalanadi?

A $78\,542 + 98\,126$

M $901\,005 - 825\,917$

Q $192 \cdot 406$

N $7\,050 \cdot 9$

L $728\,000 : 28$

Y $74\,800 : 4$

77 952	176 668	26 000	176 668	75 008
--------	---------	--------	---------	--------



12. Dushanbadan jumagacha ish kuni 8 soat, shanba kuni esa 6 soat davom etadi. Juma kuni dastgoh 296 metr mato ishlab chiqardi. Shanba kuni u qancha mato ishlab chiqaradi?